

## HADISLARNING SHARQ PEDAGOGIKASIDAGI O'RNI

*Mardiyeva Yulduz Ubaydullayevna*

*Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*+998902822728, email: [mardievayulduz@gmail.com](mailto:mardievayulduz@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda hadislarning o'rni, hadislarning sharq pedagogikasidagi ahamiyati muallif tomonidan yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Hadis, Sharq pedagogikasi, tarbiya, ta'lim.

Bizga ma'lumki, o'rta asr ta'lim tizimi bevosita shariat va islom aqidalri asosida olib borilgan. Tarbiya masalalariga bolalarning yoshligidan e'tibor qaratilgan. Bu masalani ajdodlarimiz kun tartibidagi muhim vazifa sifatida bilishgan. Biroq shariat va Islom diniga kiritilib borilgan o'zgarishlar keying davrda bir qator tushunmovchiliklarni, ta'bir joiz bo'lsa aytish mumkinki, inqirozli holatlarni keltirib chiqargan, shu boisdan ham hadislar asosidagi pedagogikani yoritish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Barcha g'oyalar orasida diniy e'tiqod va din bilan bog'liq g'oyalar insoniyat ongiga boshqa g'oyalarga nisbatan chuqur singib ketgan. Diniy xurofot va mutaasiblik avj olgan vaqtarda yuzaga keladigan tang vaziyat jamiyatning barcha jabhasini birdek qamrab olishi va beqaror vaziyatni yuzaga keltirishini hisobga oladigan bo'lsak, Pedagogik jarayonlarda mazkur sohani reallik nuqtai nazaridan ta'lim muassasalarida uqitish kun tartibidagi masalaga aylanadi. Hozirgi kunda dunyoda dini barog'i ostida harbiy to'qnashuvlar ketayotgani hammaga ma'lum. Afg'oniston, Falastin kabi davlatlardagi ahvol buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, turli diniy oqimlar, fundamentalistik, ekstremistik tashkilotlar olib borayotgan terrorchilik harakatlari necha - necha minglab begunoh odamlar hayotiga zomin bo'lmokda. Din faqatgina ezgu ishlar uchun xizmat qilishi lozim. Bu haqida sharqshunos olim U.Uvatovning bir fikri alohida e'tiborga loyiq: "Imom Buxoriy hayoti va ilmiy faoliyatiga xos yana bir muhim jihat shundaki, Buyuk alloma bundan qariyb 12 asr

oldin ham diniy mutaassiblikka, tor aqidaviylik doiralarida mahdudlashishga, bid'at va xurofotga nisbatan murosasiz bo‘lgan”.

Musulmon olamida tarbiya jarayonlariga boshqa mamlakatlarga nisbatan erta e’tibor qaratilishi tarixiy mamnbalarda keltirilib o‘tiladi. Tarbiya jarayoni esa uzoq vaqtlardan beri islomiy odat va shariatga asoslanib keldi. Tarbiyaviy jarayonlarning mazmun mohiyati muqaddas kitoblarda, eng avvalo, hadislarda o‘z ifodasini topdi. Bu borada islom ta’limotining bilimdoni, butun musulmon dunyosi uchun muqaddas bo‘lmish, axloqiy-huquqiy munosabatlarni ifoda etgan eng mukammal va ishonchli hadislar to‘plamini tuzib chiqqan Ismoil al-Buxoriyning xizmatlari beqiyosdir. Manbalarda uning tuliq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘ira ibn Bardazbeh al-Ja’fiy al-Buxoriy deb keltiriladi. Bu ismnинг ma’nolari ham o‘ziga xos bir shaklda musulmon odobi va axloqi doirasida keltirilishining sabablari tarixda bayon qilingan.

Asosiy qism: Muhammad al-Buxoriy hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni, milodiy 810 yil 20 iyulda, ko‘philik arab olimlarining fikricha, juma kuni peshindan keyin tug‘ilgan<sup>1</sup>. Buxoroda tug‘ilganligi uchun “al-Buxoriy” taxallusi bilan nom qozongan. Bu shaxs va ungacha bulgan mashhur islom allomalari sababli fanda va ijtimoiy hayotda o‘ziga xos “Buxoriylar” nisbasi shakllanganki, bu nom bugungi kunda butun islom olamida ma’lum va mashhurdir. Mustaqillik davri tadqiqotlarida Buxoriylar faoliyati yuzasidan qator tadqiqotlar utkazilib, ularning faoliyatiga doir bizga ma’lum bo‘limgan ko‘pgina jihatlar ochiqlanmoqda. Tariximizda ko‘plab mashhur allomalarning tavallud sannasi taxminan keltirilsada, bu shaxsning tavallud sanasi aniq shaklda keltirilgan. “U kishining tavallud sanalarining aniq ko‘rsatishimizga sabab,-deb yozadi sharqshunos olim U.Uvatov, buyuk muhaddisning otalari o‘z davrining olim, fozil kishilaridan bo‘lgan va o‘g‘illarining tug‘ilgan kunlarini o‘z qo‘llari bilan yozib, zamondosh tarixchilar e’tiboriga yetkazdilar”. Al-Buxoriy otadan juda yosh vaqtida yetim qolgan va asosan onasi qo‘lida tarbiya olgan. Unga o‘tkir zehn va yaxshi xotira ato qilingan edi. 10 yoshida

<sup>1</sup> Уватов У. Донолардан сабоқлар. – Т.: Мерос, 1994. -5 б.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

arab tilini o‘rganib, hadislarni yod ola boshlagan. Imom Ismoil al-Buxoriy haqidagi rivoyatlarda uning ko‘zlarini ko‘r bo‘lganligi va onasining unga hadislar o‘qib berishi natijasida ko‘z nurlari qaytarilganligi haqida fikrlar bildiriladi. Shundan suning u onasi va akasi bilan birgalikda haj safariga otlanadi. Haj ziyoratidan so‘ng u Makkada qolib ilm olishni davom ettiradi, Samarqand viloyatidago “Imom Ismoil al-Buxoriy nomidagi xalqaro tadqiqot markazi” ilmiy xodimi S. Ergashevning ma’lumotlariga ko‘ra, u kishi butunsafari vaqtida 10 000 ming kilometrdan ziyod masofani piyoda bosib o‘tgan.

Hadislar haqida so‘z borar ekan, ularning tarixi va vazifasi haqida to‘xtalmay ilojimiz yo‘q. Sobiq ateistik mafkura ta’sirida hadislar xalqimiz e’tiboridan chetda qolgan, natijada ko‘philik u to‘grisida to‘la ma’lumotga ega emas. Ma’lumki, payg‘ambar Muhammad alayhissalom hayotlik vaqtlarida jamiki mojarolar ul zot tomonidan Qur’onga muvofiq hal etilib kelingan edi. Payg‘ambar vafotlaridan keyin musulmon jamoasi hamda shu davlat tarkibiga kirgan turli xalqlarning har xil masalaga oid savollari va muammolarini hal etishda katta qiyinchiliklar paydo bo‘la boshladi. Shunda ayrim muammolarga Qur’onda javob topa olmagan kishilar, payg‘ambarning so‘zlarini, odatlari va ayrim masalalarni hal etishda tutgan yo‘llarini eslab, o‘shalar asosida hukm chiqara boshlaganlar. Shu tariqa hadislarga (paygambarning so‘zi, odati, amali haqidagi ma’lumotlarga) ehtiyoj va e’tibor kuchayib, turli xil hadis to‘plamlari yaratildi.

Imom al-Buxoriyning axloqiy tarbiya haqidagi g‘oyalari u jamlagan hadislarda o‘z aksini topgan. “Hadis” so‘zi arab tilida “xabar, hikoya” ma’nosini anglatadi. Bu so‘zga sinonim tarzida “Sunnat” so‘zini ham qo‘llaydilar va u arabchada “yo‘l, odat, xabar” ma’nolarini bildiradi. Arab manbalarida yozilishicha, “Avvalo, hadis ilmi rivoyatdir. Tilshunoslik jihatdan “hadis” o‘tmishning, qadimiylilikning ziddi, ya’ni yangilikdir. Ma’joziy ma’noda esa Rasulullohning gaplari, amallari, qarorlari, xulqulari va axloqiy sifatlari majmuasi bo‘lib, sahaba va tobeinlar orqali yetib kelgan”<sup>2</sup>. Hadislar payg‘ambar vafotidan keyin ham ancha vaqt og‘zaki tarzda muomalada bo‘lgan. VIII asrning boshlariga kelib, payg‘ambarning gaplari, amallari,

<sup>2</sup> Қозий Ризо. Кутуби Сита. – Оренбург, 1910. – 78 б.

[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

qarorlari, xulqulari va axloqiy sifatlarini o‘zida aks ettirgan rivoyatlarni, ya’ni hadislarni jamlash va yozish ishlari boshlangan.Rus sharqshunos olimi I.P.Petrushevskiyning yozishicha, hadislarning dastlabki bilimdonlari va tarqatuvchilari sahabalar bo‘lgan. Payg‘ambar vafotidan so‘ng Madina shahrida yashagan, ul kishining qarindoshlari, do‘stlari, safdoshlari va shogirdlari: Xalifa Umar ibn al-Hattob va uning o‘g‘li Abdulloh ibn Umar (693 yil vafot etgan); xalifa Ali ibn Abu Tolib; mashhur sahabalar Talha va az-Zubayr; payg‘ambarning yaqin do‘sti va taniqli kishi Abu Hurayra (677 yilda vafot etgan) - uning 800 ga yaqin shogirdlari bo‘lib, o‘zi ham uch yarim mingga yaqin hadislarni bilgan; Eronni zabit etganlardan biri Abdulloh ibn Amir (679 yil vafot etgan); Qur’on kitobining bilag‘oni Abdulloh ibn Mas‘ud (653 yil vafot etgan) - 848 ta hadislarni bilgan; paygambarning kotibi va Qur’onning muharriri Zayd ibn Sobit; payg‘ambarning rafiqalari Oysha (678 yilda vafot etganlar) - bir ming ikki yuz o‘nta hadisni bilganlar<sup>3</sup>.

Hadislarning sahabalardan keyingi bilimdonlari tobeinlar, ya’ni sahabalarning shogirdlaridir. Tobeinlardan keyin esa, ularning o‘quvchilari va shogirdlari hadislar haqida ma’lumot bergenlar.Hadis yigishda ma’lum tartibga rioya qilingan. O‘rnatilgan odatga muvofiq hadis ikki qismdan iborat bo‘lgan: Isnod (arabchadan tarjimasi- “tayanch” demakdir)- ushbu hadisni aytgan kishining ismi-sharifini ko‘rsatib o‘tishlik; Matn - hadisning mazmuni, talqinidir.Shu tariqa hadislarni jamlash ishlari rivojlangan. Ilk bor tuzilgan hadislar to‘plamidan biri 709-795 yillar mobaynida yashagan Anas ibn Molik tomonidan jamlangan “Al-Muvatta” (arabchadan tarjimasi- “so‘qmoq, oson yo‘l”) kitobi edi. U o‘z ichida 1700 ta hadisni jamlagan edi. Keyingi davrlarda mavzular bo‘yicha boblarga ajratilgan, foydalanish uchun ancha qulay hadis to‘plamlari vujudga kelgan. Ana shunday to‘plamlardan oltitasi butun musulmon olamida tan olingandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Уватов У. Донолардан сабоқлар. – Т.: Мерос, 1994. -5 б.
2. Қозий Ризо. Кутуби Сита. – Оренбург, 1910. – 78 б.

<sup>3</sup> Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII – XV веках. – Л., 1966. – 124 с.

3. Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII – XV веках. – Л., 1966. – 124 с.
4. Маттиев, И. Б. (2011). Культура здорового образа жизни: взгляды прошлых цивилизаций (на примере Узбекистана). In Педагогика: традиции и инновации (pp. 49-51).
5. Маттиев, И., & Шодиярова, К. (2020). Талабаларда саломатликни асрашга йўналтирилган тафаккурни шакллантиришга хизмат қиладиган шакллар, воситалар, методлар. Общество и инновации, 1(2/S), 314-318.
6. Маттиев, И. Б. (2016). Некоторые направления государственной политики здоровьесбережения как педагогический фактор формирования здорового поколения. Бюллетень науки и практики, (10 (11)), 358-363.
7. Маттьев И. Б. (2022). Социально-педагогическая необходимость развития здравоохранения для студентов. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4), 300-304.
8. Mattiev, I. B. (2022, February). INNOVATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION SYSTEM AND THEIR USE. In Conference Zone (pp. 167-168).
9. Маттьев И. Б. (2022, февраль). ВАЖНОСТЬ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕЗАВИСИМОМ ОБРАЗОВАНИИ. В конференц-зоне (стр. 20-23).